

KONLARDAN QAZIB OLINAYOTGAN NEFT VA UNING MAHSULOTINI

ALOHIDA – ALOHIDA HAYDASH

Tohirkhon Nurdinov Rashidkhonovich

“To’raqo’rg’on neft bazasi” MChJ mutahasissi

Tayanch so`zlar: neft va uning mahsulotlarini ketma – ket haydash; aralashma, ajratgich, tinik neft mahsulotlari, qora neft mahsuloti, turbulent oqimda aralashma hosil bo`lishi, lominar rejimda aralashma hosil bo`lishi, hosil bo`lgan aralashma hajmi, diska, shar, porshen.

Neft va uning mahsulotlarini ketma – ket haydash deganda, bir necha xil neft yoki neft mahsulotlarini bir quvur orqali tartib bilan birinchisining izidan ikkinchisini haydash jarayoni tushuniladi. Amalda bir yo`nalishga bir necha xil neft yoki uning mahsulotlarini haydash kerak bo`lsa, ketma – ket haydash usulidan foydalaniladi. Bundan maqsad har bir neft mahsuloti uchun alohida – alohida quvur qurish kerak bo`lmaydi (1.18).

Ketma – ket haydash usulida quvurning foydali ishi koeffitsienti yuqori bo`lib, quvur har doim ish bilan band bo`ladi. Ketma – ket haydashning asosiy kamchiliklaridan biri quvurda aralashm hosil bo`lishidir. Quvurlarda ortiqcha aralashmalar hosil bo`lishini kamaytirish uchun iloji boricha fizik – kimyoviy xossalari bir – biriga yaqin bo`lgan neft yoki uning mahsulotlarini haydash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bir quvur orqali tiniq neft mahsulotlarini benzin, kerosinni ketma – ket haydash maqsadga muvofiq. Tiniq va qora neft mahsulotlarini bir quvur orqali ketma – ket haydab bo`lmaydi. (benzin va mazut). Chunki, hosil bo`lgan aralashma sifati buzilib tayyor mahsulot hisoblanmaydi. Hozirgi paytda benzin, kerosin va dizel yoqilg`ilarini ketma – ket haydab iste‘molchilarga yetkazish usulidan ko`proq foydalanilmoqda (2.53).

Bir quvur orqali ketma – ket haydash bir mahsulotdan keyin ikkinchi mahsulotni quvurga haydash va oldingi mahsulotni keyingi haydalayotgan mahsulot bilan siqib harakatga keltirish orqali amalga oshiriladi. Izma – iz haydalayotgan ikki mahsulotning ta’sir zonasida ularning o`zaro diffuziyalanishi hamda oqim tezligining quvur qirqimi yuzasi bo`yicha bir xil bo`lmasligi (quvur o`qida devori tomon kamayib borishi) natijasida umumiy aralashma hosil qiladi.

Aralashma qancha miqdorda hosil bo`lishi haydalayotgan mahsulotlarning oqish rejimiga va mahsulotning qovushqoqligiga bog`liq bo`ladi.

Haydalayotgan mahsulot rejimi turbulent rejimda bo`lganda (quvur kesimi yuzasi bo`yicha oqim tezligi bir xilroq bo`ladi) aralashma hosil bo`lishi kamroq bo`ladi. Masalan, oqim turbulent rejimda bo`lganda (quvur kesimi yuzasi bo`yicha oqim tezligi bir xil) lominar rejimga nisbatan (oqim tezligi quvur o`qidan uning devori tomon kamayib boradi) kam aralashma hosil bo`ladi. Chunki, ikki mahsulotning ta’sir chegarasi turbulent rejimda lominar rejimga qaraganda kam bo`ladi.

Oqim rejimiga ko`ra aralashmaning hosil bo`lish chizmasi.

a) turbulent.

b) lominar.

Bundan tashqari oldingi haydalayotgan mahsulot qovushqoqligi keyingi haydalayotgan mahsulot qovushqoqligidan kichik bo`lsa, yoki aksincha hosil bo`ladigan aralashmaning hajmi ko`p bo`ladi. Turbulent diffuziya nazariyasiga asosan V.S.Yablonskiy va V.A.Yufin ifodalari bo`yicha hosil bo`lgan aralashmaning hajmi quyidagicha aniqlanadi.

$$V_{apa} = \frac{2V_{TP}}{\text{Re } d^{0.5}} (Z_1 - Z_2)_2$$

Bu yerda $V_{TP} = \frac{\Pi \Delta^2}{4L}$ - quvur hajmi;

Δ – quvurning ichki diametri;

L – quvur uzunligi;

$R_{ed} = \frac{\omega C}{\Delta_r}$ - pekli diffuzion parametri;

w – neft mahsulotining o`rtacha zichligi;

DT – turbulent diffuziya koeffitsienti.

Bu Teyler yoki Nichavol – Yablonskiy ifodalari bo`yicha hisoblanadi.

$$\Delta_T = 1,785 \omega \Delta \sqrt{\lambda}$$

Bu yerda: λ – gidravlik qarshilik koeffitsienti;

V – kinematik qovushqoqlik koeffitsientining o`rtacha qiymati;

$v_{cp} = 0,25 (3v_L + v_T)$ va

v_T – engil va og`ir neft mahsulotlarini kinematik qovushqoqlik koeffitsienti.

Neft va uning mahsulotlarini ketma – ket haydashda aralashmaning hosil bo`lishini quyidagi tadbirlar orqali kamaytirish mumkin:

1. Haydalayotgan mahsulotlar oqim tezligini turbulent rejimida sodir etish. Reynolds soni oshgan sari hosil bo`ladigan aralashmani haydashni turbulent rejimida ya`ni, $Re > 1000$ da olib borish kerak.

2. Ketma – ket haydalayotgan mahsulotlarni zichligi va qovushqoqligi bo`yicha farqini minimal bo`lishligini ta‘minlash.

3. Aralashma oqimini, quvurini uzgaruvchan relief bulimlaridan utayotganda uni tuxtatmaslik. Mahsulotlar qovushoqligi bir – biriga yaqin bo`lmasligi, qo`shimcha aralashma hosil bo`lishini sodir etadi.

4. Idishlar saroyi va nasoslar o`rtasida bog`lanish to`g`ri, sodda, berk tarmoqlarsiz bo`lishini ta`minlash. Bunda, haydovchi stantsiyalarining kommunikatsiyalarida hosil bo`ladigan aralashma miqdori kamayadi.

5. Aralashmalarni ajratgichlar yordamida kamaytirish.

Ajratgichlar maxsus moslamalar yordamida haydashning boshida mahsulotlar o`rtasiga kiritilib, haydashning oxirida ularni quvurdan chiqarib olinadi.

Ketma – ket haydalayotgan mahsulotlarni suyuq ajratuvchilar sifatida shu haydalayotgan mahsulotlar bilan aralashmaydigan va emulsiya hosil qilmaydigan suyuqlik yoki neft mahsulotlari ishlatiladi (4.117). Keyingi vaqtarda ajratuvchilar sifatida quyuqlashuvchi polimer moddalardan foydalanimoqda. Ular ketma – ket haydalayotgan mahsulotlarning o`rtasiga kiritilsa, ma'lum vaqtda suyuqlikning qovushqoqligi ortib quyuqlashadi. Bu quyuqlashgan suyuqlik, ikki mahsulot o`rtasida quyuq – elastik porshen singari harakatlanib, aralashma hosil bo`lishini kamaytiradi. Bulardan tashqari, suyuq ajratuvchilar sifatida xossalari ketma – ket haydalayotgan suyuqliklarning xossalariiga yaqin bo`lgan mahsulotlar ishlatilmoqda. Masalan, benzin va dizel yoqilg`isini ketma – ket haydashda suyuq ajratuvchi sifatida kerosin ishlatiladi.

Mexanik ajaratuvchilar (qattiq), suyuqliklarni ajratishda va aralashmani hosil bo`lishini kamaytirishda va aralashmani hosil bo`lishini kamaytirishda samarador hisoblanadi. Ular diska, porshen, shar (sferik) ko`rinishida bo`lib, diametri quvurning ichki diametridan 2 – 3 mm katta bo`ladi. Diska va porshen ko`rinishidagi ajratuvchilarini quvur devoriga tegib turadigan qismida elastik manjet bo`lib, u orqali ajratuvchini quvur devoriga bulgan ta`siri oshiriladi. Ular uz xarakati davomida quvur devoridagi mahsulot qoldiqlarini oqim bo`yicha siljitadi. Ketma – ket haydalayotgan mahsulotlarni ajratuvchilarini oraliq nasos stantsiyalari orqali o`tishi ikki usul yordamida amalga oshiriladi. Birinchi usulda, ular maxsus kamera yordamida qabul qilinib, keyin yana quvur ichiga tushiriladi. Aralashma stantsiya orqali o`tib bo`lguncha haydash jarayoni to`xtatiladi. Bu o`z navbatida quvurning ishlab chiqarish qobiliyatini kamaytiradi. Ikkinci usulda ajratuvchilar maxsus moslamalar (kamera) yordamida nasoslar orqali o`tkazilmay yonidan o`tkazib yuboriladi. Bu usulda haydash jarayoni to`xtatiladi.

Shar ko`rinishidagi ajratuvchilar elastik, tabiiy yoki sun`iy kauchukdan maxsus rezinalardan tayyorlanadi. Ularning devorining qalinligi 25 mm 80 mmgacha, diametri 100 mmdan 1 mgacha bo`ladi. Quvur ichiga tushurishdan oldin ularning ichi suv yoki boshqa suyuqliklar bilan to`ldirilib, diametrini quvurning ichki diametriga nisbatan 10% ga kattalashtiradi (4.204). Ajratish jarayonini ishonchli bo`lishini ta`minlash maqsadida quvur ichiga birdaniga

o`ntagacha shar tushuriladi. Quvurga tushurilgan mexanik ajratuvchilar soniga ko`ra hosil bo`ladigan aralashma hajmi quyidagicha aniqlanadi:

$$V_{ap}K V (n - 1)$$

Bu yerda V – ikki ajratuvchi orasidagi quvur hajmi;
 n – ajratuvchilar soni.

Mahsulotlarni ketma – ket haydashni nazorat qilishdan asosiy maqsad hosil bo`lgan aralashmani quvurning qaysi bo`limidan kelayotgan va qachon qabul qilish punktiga kelishini bilish hamda ularning qabul qilish choralarini tashkil qilishdan iborat. Nazorat usullari ko`p bo`lib, ularni aniqlash printsiplari neft mahsulotlarini va aralashmaning zichligini, rangini, dielektrik ko`rsatkichlarini hamda boshqa xossalalarini bir – biridan farq qilishga asoslangan. Bu usullar ichida aralashmaning kontsentratsiyasini avtomatik aniqlash usuli samarador hisoblanadi. Buning uchun mahsulotlarni o`zaro ta`sir zonasidagi aralashmaning kontsentratsiyasini va sifatini tez aniqlaydigan maxsus elektron apparatlardan foydalaniladi. Ular oqim yo`nalishi bo`yicha quvurning tegishli joylariga o`rnataladi.

Umuman hosil bo`lgan aralashma tovar neft hisoblanmaydi. Shuning uchun aralashmani oxirgi punktda ajratib olish asosiy jarayonlarni biri hisoblanadi. Ajratib olish ikki usul yordamida amalga oshiriladi. Birinchi usulda hamma aralashma bitta idishga qabul qilinadi. Ikkinci usulda ketayotgan neft mahsulotining oxirgi qismi bir idishga, aralashmaning oxirgi qismi va uning ketidan kelayotgan mahsulotning bosh qismi boshqa idishga qabul qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Котик В.Г., Глазнов В.И., Зиневич А.М. Защита от коррозии протяженных металлических сооружений. М.: Недра, 1995г.
- Куцын П.В. Охрана труда в нефтяной и газовой промышленности. М.: Недра, 1987г.
- Нагуманов К.Н., Андреев Р.А., Насыбуллин С.М. Защита промысловых трубопроводов от почвенной коррозии. // Нефтяное хозяйство – 2005 №4 стр. 66-69
- Рахманкулов Д.Л., Бугай Д.Е., Габитов А.И., Голубев М.В., Лаптев А.Б., Калимуллин А.А. Ингибиторы коррозии. - Уфа: Государственное издательство научно – технической литературы «Реактив», – 1997. – Т.1. – 296 с.
- Юрчук В.А., А.З.Истомин «Расчеты в добыче нефти» М.: Недра, 1987г.